

VOLUME-2, ISSUE-1

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATNNI O'QISH VA
TUSHUNISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING
INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI**

Sobirov Abdulaziz Abduroziqovich

Osiyo xalqaro universiteti magistri Ikromova Lobar Vohitovna

*Ilmiy rahbar Osiyo xalqaro universiteti pedagogika psixologiya kafedrasida
dotsenti*

Annotatsiya: Dunyo mamlakatlarida turli sohalardagi islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi sababli malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talab yanada oshmoqda. Bu aksariyat xorijiy davlatlarda joriy etilgan ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash hamda monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Shuningdek, bugungi kunda yuzaga kelayotgan intellektual olam yangiliklarini anglash, ularga to'g'ri munosabat bildirish hamda yanada yuksak natijalarni qo'lga kiritish uchun xizmat qiluvchi kashfiyotlar qilish uchun ham ta'lim jarayonini yuqori darajaga olib chiqish muhim muammo sanaladi. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'inini samarali tashkil etish, ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida sifat va samaradorlikka erishish muhim yo'nalish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: o'yin-topshiriq, xalqaro baholash, tushunish kompetensiyalari, boshlang'ich sinf.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning texnik va axborot vositalari joriy etish, ta'lim tashkilotlarida kadrlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan choratadbirlarni ishlab chiqish, o'quv dasturlarini takomillashtirish yuzasidan qator vazifalar shular jumlasidandir. Shuningdek, mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi o'zgarishlar hozirgi kun pedagogikasi uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini 2021-yildan boshlab PIRLS, TIMSS, PISA singari xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash va unga muvaffaqiyatli ishtirokni ta'minlash vazifalarini ham qo'ymoqda.

VOLUME-2, ISSUE-1

Zamonaviy jamiyatda boshlang'ich sinfdan o'qish savodxonligi mukammal shakllangan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni anglash orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay oladi. Ta'lim tizimining bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatish, uzluksiz samarali ta'lim olish uchun maqbul muhit, sharoit yaratishdan iborat. Ma'lumki, mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari 2021-yil PIRLS - (ingl. Progress in International Reading Literacy Study, ya'ni matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida ilk marotaba ishtirok etdi. Bunda respublika bo'yicha jami 180 ta maktab tanlab olindi va 2021-yilda jami 5948 ta o'quvchi ishtirok etdi. Ushbu dastur doirasida o'quvchilarning matnni o'qish va uni tushunish kompetensiyalari baholanadi. PIRLS-xalqaro baholash dasturi talablariga mos test va topshiriqlar ham aynan shu maqsadni qamrab oladi. PIRLS xalqaro baholash dasturining amaliy ahamiyati mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tizimida ijobiy imkoniyatlarni qo'lga kiritishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida badiiy matnlarning didaktik, tasviriy va hikoya mazmunli turlari kiritilgan. Bu turdagi matnlar mazmuni aynan boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar saviyasiga mos keladi. O'qish darslarida badiiy asarlar ustida ishlash orqali o'quvchilarning matn mohiyatini anglash ko'nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, matn mazmunini anglashga qaratilgan o'yin-mashqlar, zamonaviy innovatsion metod va texnologiyalar sifatida "Scanning" - ko'zdan kechirish orqali o'qish va anglash, "Renaming" - matnni anglash asosida unga yangi nom qo'yish, "Prefrasing" - matndagi so'zlarni o'z ma'nodoshlari bilan almashtirish asosida tushunish, "Reconstructing" - matnni qaytib tuzish orqali uning mazmunini anglash kabi mashq turlaridan foydalanish o'quvchilarda nutqiy, lingvistik, anglash, faol fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi, og'zaki nutqni ravonlashtiradi. O'qish savodxonligini rivojlantirish uchun o'quvchilarga beriladigan o'yin-toshpirlar murakkablik darajasiga ko'ra, asosan, uch turga ajratiladi. Qayta xotiralanishga asoslangan o'yin-topshiriqlar o'quvchidan hech qanday ijodiylikni, egallagan bilimlarni yangi sharoitda qo'llashni, yaratuvchanlikni talab etmaydi. Bunday o'yin-topshiriqlarni bajarish o'quvchiga katta murakkablik ham tug'dirmaydi. Oldin o'rganilgan mavzular va bo'limlar yuzasidan muayyan bilimga ega bo'lgan o'quvchi bunday topshiriqlarni mustaqil bajarishi mumkin. Qisman izlanishga oid o'yin-topshiriqlar o'quvchidan ma'lum bir yordamga asoslangan holda ijodiy

VOLUME-2, ISSUE-1

faoliyat ko'rsatishni talab etadi. Agar o'quvchi oldin egallangan bilimlarni yangi sharoitda, tom ma'noda notanish sharoitda qo'llashda o'zida ishonch sezsa va uni bemalol uddalay olsa, topshiriqning qisman ijodiylikiga ehtiyoj qolmaydi. Topshiriq shartini bajarish uchun o'quvchi tashqaridan (masalan, sinfdoshlaridan, o'qituvchisidan, darslik va o'quv qo'llanmasidan, lug'atlardan, ma'lumotnomalardan va h.k) foydalansa, o'z-o'zidan ravshanki, topshiriq qisman izlanishli bo'lib qoladi. Ijodiy o'yin-topshiriqlar oldin egallangan bilimlarni tamomila yangi sharoitda qo'llash demakdir. Shubhasiz, bu jarayon o'quvchidan ijodiylikni, izlanuvchanlikni talab etadi. O'yin-topshiriqni bajarishda o'quvchi faqat o'zida mavjud ichki imkoniyatlarga tayanadi. Matn ustida ishlashda o'yinlar bilan bir qatorda pedagogik texnologiyalarning boshqa aqliy hujum, grafik organayzerlar kabi turlaridan foydalanishning ham ahamiyati nihoyatda beqiyos. PIRLS tadqiqotida samarali natijalarni qo'lga kiritish uchun avvalambor, o'quvchilarni o'qishga qiziqtirish talab etiladi. Motivatsiyani shakllantirish uchun: O'quvchilar nega o'qimaydilar? Buning uchun nima qilish kerak? Kitob mutolaasi o'quvchiga nima beradi? Ularni o'qishga qanday o'rgatamiz? kabi muammoli savollarga javob izlash talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matni o'qish va tushunish kompetensiyalarini integrativ ijodiy topshiriqlar asosida rivojlantirishning ijtimoiy zarurat sifatidagi o'nini izohlovchi, o'quvchilarni kitobxonlikka qiziqtirishning motivatsion intellektual imkoniyatlarini xarakterlovchi omillar (matni o'qish va yozish, audio-matnlarni tinglab-tushunish hamda ularni og'zaki bayon etish) sifatida ularda badiiy va axborotli matnlarni mutolaa qilishga motivatsiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik maktab o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalar (lug'at boyligi)ni rivojlantirishning retrospektiv usullarini o'zida aks ettirgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha o'qish va tushunish kompetensiyalarini shakllantirishda samarali bo'lgan hissiy, irodaviy omillar, mazmunan anglash bosqichlarini qo'llashning takomillashtirilgan klasterli modeli ishlab chiqildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matni o'qish va tushunish kompetensiyalarini innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali shakllantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat hamda dolzarb muammo ekanligi aniqlandi; boshlang'ich sinf o'quvchilarni kitobxonlikka qiziqtirish, ularni PIRLSxalqaro baholash dasturiga tizimli tayyorlash, ularning o'qish savodxonligi, badiiy va axborotli matnlar mazmunini tushunish kompetensiyalarini innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlanib,

VOLUME-2, ISSUE-1

ilmiy jihatdan asoslandi; innovatsion pedagogik texnologiyalar sifatida matnni o'qish va tushunish kompetensiyalarini xarakterlovchi omil (o'qish, yozish, tinglab tushunish va og'zaki bayon qilish)lar ilmiy-metodik asoslandi, zamonaviy innovatsion "Scanning", "Renaming", "Prefrasing", "Reconstructing" innovatsion texnologiyalarining takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi; boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni o'qish va tushunish kompetensiyalarini innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanib shakllantirish asosida ularda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi takomillashtirildi; o'quvchilarda matnni o'qish va tushunish kompetensiyalarini shakllantirish asosida ularni badiiy adabiyot mutolaasiga qiziqtirishga yo'naltirilgan yondashuvlarning samaradorlik darajasi tajriba yo'li bilan aniqlashtirilib baholash mezonlari ishlab chiqildi; tajriba-sinov natijalari matnni o'qish va tushunish bilan bog'liq ishlarning muayyan reja va dastur, aniq tashkiliy hamda pedagogik shart-sharoitlarga tayangan holda olib borilishi maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqladi. Natijada o'quvchilarda matnni o'qish va uni tushunishga oid kompetensiyalarning shakllanganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ананьев В.А. Основы психологии здоровья, М.: Академия, 2012. -212 с.
2. Белашева И. В. Толерантное поведение как критерий психологического здоровья личности // Мир науки, культуры, образования. – 2014. – 342 с.
3. Васильева О.С., Филатов Ф.Р. Психология здоровья человека; эталоны, представления, установки. М.: Академия, 2014. - 352 с.
4. Sobirov, A. (2021). Особенности феномена психологической защиты у высококвалифицированных спортсменов. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 3(3).
5. Абдулазиз, С. (2021). Собиров Абдулазиз, Родительские компетенции: социальные, духовно-нравственные аспекты. В МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ ПО ПОДГОТОВКЕ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ (с. 141).
6. Собиров, А. А. (2020). Содержание тренинговой программы развития психологической защиты у спортсменов. Психология, Выпуск, (2), 195-199.

VOLUME-2, ISSUE-1

7. Sobirov, A. (2022). Психическое здоровье. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 9(9).
8. Собиров, А. А. ВИДЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ЛИЧНОСТИ В СПОРТЕ И В ЖИЗНИ. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ, 286.
9. Собиров, А. А. (2022). Технология развития критического мышления как средство повышения качества образования. *Science and Education*, 3(4), 1629-1636.
10. Собиров, А. А. (2022). Психическое здоровье. *Science and Education*, 3(5), 1504-1510.
11. Sobirov, A. (2021). Индивидуальные проявления механизмов психологической защиты у спортсменов. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 3(3).
12. Sobirov, A. (2021). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ У СПОРТСМЕНОВ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 3(3).
13. Собиров, А. А. (2022). БИХЕВИОРИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОД И ЕГО ПРИМЕНЕНИЕ В СФЕРЕ МЕНЕДЖМЕНТА. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(3), 110-114
14. Sobirov, A. (2021). ВИДЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ЛИЧНОСТИ В СПОРТЕ И В ЖИЗНИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
15. Sobirov, A. (2021). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАЩИТНЫЕ ФАКТОРЫ ПРОЯВЛЯЮЩИЙСЯ У СПОРТСМЕНОВ: The features of negative psychological defense, manifested in athletes under the influence of external causes, and the factors causing it are classified. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
16. Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131-139.
17. Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131-139.

VOLUME-2, ISSUE-1

18. Khalilova, S. (2022). PHILOSOPHICAL ASPECTS OF GLOBALIZATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 28, 6-11.
19. Ravshanovna, X. S. (2023). Bo 'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasining zamonaviy modellari va ularni qo 'llash metodlari. *Journal of Universal Science Research*, 1(9), 223-234.
20. XALILOVA, S. (2021). JAHON PEDAGOGIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MULOQOT VA MILLIY PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARIGA TRANSFORMATSIYASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
21. Ravshanovna, K. S. (2023). Factors Affecting the Formation of a Positive Attitude to the Learning Activity in Students. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 116-122.
22. Ravshanovna, X. S. (2023). Globallashuv sharoitida o 'quvchilar aqliy-ruhiy qiyofasini shakllantirishda muloqot uslublarning ahamiyati. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 100-106.
23. Ravshnovna, K. S. (2023). THE ROLE OF THE CULTURE OF COMMUNICATION IN MODERN EDUCATION AND EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(3), 356-361.
24. Ravshanovna, X. S. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR O 'RTASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR. *Лучший инноватор в области науки*, 1(1), 814-819.
25. Ravshanovna, X. S. (2023). O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri va ahamiyati. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 803-816.
26. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 386-388.
27. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.
28. Maxmudova, N. (2018). THE ROLE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN THE INNOVATIVE TRAINING PROCESS. *Экономика и социум*, (3 (46)), 34-36.

VOLUME-2, ISSUE-1

29. Jalolov, T. S. (2023). СОЗДАНИЕ ПРОГРАММЫ ДЛЯ ИМИТАЦИИ ШИФРОВАНИЯ МАШИНЫ ENIGMA НА ЯЗЫКЕ PYTHON. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 317-323.
30. Jalolov, T. S. (2023). STUDY THE PSYCHOLOGY OF PROGRAMMERS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 563-568.
31. Akbarovna, I. S. (2023). RESEARCH METHODS OF YOUTH PSYCHOLOGY. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
32. Ikromova Sitora Akbarovna. (2023). NEUROPHYSIOLOGY BASIS OF HORMONES. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 68–77.
33. Akbarovna, I. S. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information in Adolescents. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 119-122.
34. Akbarovna, I. S. (2023). THE DEVELOPMENT OF CONSCIOUSNESS AND THE TEACHING OF CONCEPTS OF THE UNCONSCIOUS TO STUDENTS. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 107-114.
35. Ikromova, S. A. (2023). Cognitive processes and their description in psychology. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 115-133.
36. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 184-191.
37. Akbarovna, I. S. (2023). NEGATIVE AND POSITIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 192-197.
38. Ikromova, S. A. (2023). FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF IMMUNITY TO DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS. *Innovation in Science, Education and Technology*